

## **“O‘zmilliybank” AJ dan Eko-aksiyani o‘tkazish va unda ishtirok etish Qoidalari**

### **I. UMUMIY QOIDALAR**

1.1. “O‘zmilliybank” AJdan Eko-aksiyani o‘tkazish va unda ishtirok etish Qoidalari (keyingi o‘rinlarda – Qoidalari) O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi, O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga muvofiq ishlab chiqilgan.

1.2. Mazkur Qoidalari Visa xalqaro to‘lov kartalari egalari bo‘lgan yangi mijozlarni jalb qilish, kartalar emissiyasini, savdo-servis korxonalarida ular bo‘yicha tranzaksiyalar hajmi va sonini oshirish, “O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki” AJ (keyingi o‘rinlarda – Bank) mijozlarini bank mahsulotlari va xizmatlaridan faol foydalanishga qiziqtirish maqsadida xalqaro Visa International to‘lov tizimi bilan birgalikda aksiyani (keyingi o‘rinlarda – Aksiya) o‘tkazish uchun ishlab chiqilgan.

1.3. Aksiya Bankning Visa xalqaro to‘lov kartalari egalari hisoblangan (keyingi o‘rinlarda – “Ishtirokchilar”/”Ishtirokchi”) jismoniy shaxslar (O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari, shuningdek, xorijiy davlatlar fuqarolari, O‘zbekiston rezidentlari hisoblangan fuqaroligi yo‘q shaxslar) o‘rtasida o‘tkaziladi.

1.4. Aksiyani o‘tkazish muddati: 2020 yil 15 oktabrdan 2021 yil 31 martgacha.

1.5. Aksiya O‘zbekiston Respublikasi hududida o‘tkaziladi.

### **II. AKSIYANI O‘TKAZISH SHARTLARI VA TARTIBI**

2.1. Aksiyada Bankning Visa kartalarining barcha turlari – Virtual, Classic, Gold, Platinum, Visa Gold “O‘zmilliybank”-MAK kobrend kartasi, Visa Platinum “O‘zmilliybank”-MAK kobrend kartasi, Infinite ishtirok etadi.

2.2. Bank xodimlari Aksiyada ishtirok etishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

2.3. Aksiya davomida qimmatbaho sovrinlarning oraliq o‘yinlari o‘tkaziladi, Aksiyani o‘tkazish muddati tugagandan so‘ng Bosh sovrin o‘ynaladi.

2.4. Aksiyaning oraliq o‘yinlarida ishtirok etish uchun Visa kartalarining biridan 10 AQSH dollari va undan yuqori miqdordagi summaga mablag‘ o‘tkazish lozim. Bu savdo-servis korxonalari terminallarida tovarlar/xizmatlar uchun to‘lovlar yoki internet tarmog‘ida Visa Direct xizmati yordamida boshqa bankka o‘tkazmalar bo‘lishi mumkin.

2.5. Bosh sovrin o‘yinida ishtirok etish uchun Aksiyani o‘tkazish muddati tugagunga qadar Visa kartasidan Aksiya boshidan 100 AQSH dollari va undan yuqori miqdordagi summaga mablag‘ o‘tkazilishi lozim. Bu savdo-servis korxonalari terminallarida tovarlar/xizmatlar uchun to‘lovlar yoki internet tarmog‘ida Visa Direct xizmati yordamida boshqa bankka o‘tkazmalar bo‘lishi mumkin.

2.6. Aksiyada bankomat va terminallar orqali konversiya va naqd pul mablag‘larini olish bo‘yicha tranzaksiyalar hisobga olinmaydi.

2.7. Aksiya o‘tkazilishi va uning shartlariga, o‘yinlarning (qimmatbaho sovrinlar, Bosh sovrin) o‘tkazilish sanasiga oid xabardorlik Bank tomonidan Bankning rasmiy saytida va Bankning boshqa rasmiy axborot kanallarida mazkur Qoidalarning 5.1-bandiga muvofiq joylashtirish orqali amalga oshiriladi.

### **III. AKSIYA G‘OLIBLARINI ANIQLASH TARTIBI**

3.1. Oraliq o‘yinlarda 5 (besh) ta sovrinli o‘rin va Aksiya tugaganidan keyin bitta Bosh sovrin mavjud.

3.2. Aksianing barcha o‘yinlari g‘oliblari mazkur Qoidalarning 5.1-bandiga muvofiq Random.org xizmati yordamida Aksiya ishtirokchilari o‘rtasida tasodifiy tanlov orqali onlayn tarzda aniqlanadi.

3.3. Oraliq o‘yinlarining birida qimmatbaho sovrin yutib olgan Ishtirokchilar keyingi qimmatbaho sovrinlar o‘yinida ishtirok etolmaydilar. Mazkur Qoidalarning 2.5-bandiga muvofiq Aksianing barcha Ishtirokchilari qatnashadigan Bosh sovrin bundan mustasno.

#### **IV. SOVRINLAR, ULARNI OLİSH TARTIBI VA MUDDATI**

4.1. G‘oliblar mazkur Qoidalarda belgilangan sovrinlarni olish huquqiga ega, aynan:

4.1.1. Oraliq o‘yinlarning sovrinlari:

- 1- o‘rin – elektromoped;
- 2- o‘rin – elektrovelosiped;
- 3-o‘rin – sportzalga chipta;
- 4-o‘rin – velosiped;
- 5- o‘rin – giroskuter.

4.1.2. Bosh sovrin – elektromobil.

4.2. Aksiya sovrinlarining narxi, parametrлари va tavsifлари Bankning ixtiyoriga ko‘ra belgilanadi va Ishtirokchilar kutganidek bo‘lmасligi mumkin. Sovrinlarning tashqi ko‘rinishi reklama roliklaridagi va e’lon qilingan reklama materiallaridagi tasvirlardan farq qilishi mumkin.

4.3. Aksiya g‘oliblariga sovrinlar har bir o‘yin o‘tkazilgandan so‘ng topshiriladi.

4.4. Aksiya g‘oliblariga sovrinlar Bankning Bosh ofisida yoki Bankning filialida g‘olibning shaxsan o‘zi kelishi va quyidagi zarur hujjatlar taqdim etilishi sharti bilan topshiriladi:

- g‘olib pasportining asl nusxasi;
- O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq jismoniy shaxslar daromad solig‘ini to‘lash bo‘yicha majburiyat-arizasi.

4.5. Aksiya g‘oliblari Aksiya sovrinini olish bilan bog‘liq soliqni to‘lashga javobgar hisoblanadi.

4.6. Aksiya g‘oliblariga sovrinlarni berish bo‘yicha Bankning majburiyatları ular Aksiya g‘oliblariga topshirilgan va qabul qilish-topshirish Dalolatnomasi imzolangan paytdan boshlab bajarilgan hisoblanadi.

4.7. Aksiya g‘olibi sovrinni olishdan bosh tortsa yoki sovrinni olishga 2021 yil 31 iyulgacha kelmasa, Bank sovrinni o‘z xohishiga ko‘ra boshqa Ishtirokchiga berish yoxud O‘zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchiligaga zid bo‘lmagan holda sovrinni boshqacha tarzda tasarruf etish huquqiga ega.

4.8. Topshiriladigan sovrin qiymatining naqd ekvivalentini to‘lash amalga oshirilmaydi.

#### **V. YAКUNIY QOIDALAR**

5.1. Aksiya o‘tkazilishiga tegishli axborot-reklama materiallari Bankning rasmiy [www.nbu.uz](http://www.nbu.uz) sayti va boshqa rasmiy axborot kanallarida – Telegram – [t.me/nbu\\_official](https://t.me/nbu_official), Facebook – [www.facebook.com/uznbu](https://www.facebook.com/uznbu), Instagram – [www.instagram.com/nbuofficial](https://www.instagram.com/nbuofficial), shuningdek, Bankning xohishiga ko‘ra, boshqa

ommaviy axborot vositalarida joylashtiriladi.

5.2. Bank quyidagilarga javobgar hisoblanmaydi:

- Aksiya sovrinlarini olish uchun muhim bo‘lgan ma’lumotni g‘olibning aybi yoki Bankka bog‘liq bo‘lmagan boshqa sabablar bilan olmaslik/o‘z vaqtida olmaslik;

- Mazkur Qoidalarda nazarda tutilgan Aksiya shartlarini Ishtirokchilar tomonidan bajarilmaganligi/o‘z vaqtida bajarilmaganligi;

- Sovrinni talab qilmagan yoki undan voz kechgan holatda g‘olib uni olmasligi;

- Ishtirokchi Aksiyada ishtirok etib, mazkur Qoidalari bilan to‘liq tanishganini va talablariga roziligin tasdiqlaydi, xususan, quyidagilar bilan chegaralanmagan holda, o‘z roziligini bildiradi:

- Mazkur Qoidalarda ko‘zda tutilgan tartib bo‘yicha g‘olibni aniqlashga;

- Ushbu Aksiyani o‘tkazish doirasida shaxsiy ma’lumotlarini taqdim etishga va ularga ishlov berishga;

- Aksiya o‘tkazilishi paytida Ishtirokchi tomonidan uchinchi shaxslarning huquqlari buzilishi sababli uchinchi shaxslar tomonidan Bankka nisbatan qandaydir da’volar bo‘lsa, Ishtirokchi bunday nizolarni mustaqil hal qilish javobgarligini o‘z zimmasiga oladi.

5.3. Bank O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq tegishli ma’lumotlarni Bankning rasmiy saytiga joylashtirish orqali Aksiya shartlarini o‘zgartirish huquqiga ega. Ishtirokchilar yuqorida ko‘rsatilgan saytda tegishli o‘zgarishlarni tekshirib, Aksiya shartlari yangilanishini mustaqil ravishda nazorat qilishlari shart.

5.4. Aksiyani o‘tkazish davomida yuzaga kelgan barcha nizolar O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi belgilangan tartibda hal etiladi.